

ZAMONAVIY BILIMLARNI EGALLASHDA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI



XOLOVA MOHINA XAYOT QIZI,

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali talabasi

ARAKULOV GAYRAT TULKINOVICH,

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali o'qituvchisi;

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp219-221>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilm-fan taraqqiyotining asosiy maqsad va vazifalari, bugungi kundagi ahamiyati, yuksak taraqqiyotga erishish uchun qo'yilgan qadamlar, jamiyat ongida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish va mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim jarayonlaridagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fan, taraqqiyot, islohot, ta'lim, kadrlar tayyorlash, texnika va texnologiyalar, metod.

Fan va dunyo haqidagi bilimlar tizimi ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli bo'lmish olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi hamda inson bilimlarining ayrim sohalarini ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir.

Shu o'rinda qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning ta'lim va tarbiya haqidagi ta'rifi yodga tushadi: "Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina boradi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishni o'rganishidir"[1].

Har bir bolaning dunyoga kelishi faqat tabiiy-biologik jarayon emas, balki u ma'lum qobiliyat kurtaklari bilan tug'iladi. Lekin u inson, shaxs sifatida oilada, turli jamoalardagi faoliyatida ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash ehtiyoji ham ortib boradi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qaraladi, chunki ta'lim-tarbiya ishlarini olib bormasdan turib jamiyatni, davlatni, shaxsni rivojlantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi[3].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Respublikamiz

mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya tizimini yangilash vazifasi qo'yildi. Shu sababli ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, huquqiy maqomini oshirish, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqish, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularni eng ilg'or texnika va texnologiya bilan jihozlash, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalarini jahon miqyosidagi yutuqlar asosida davr talabiga mos takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy, raqobatbardosh kasb-hunar sirlarini o'rgatish va ularning bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun malakali kadrlarni tayyorlashda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" alohida o'rin tutadi. Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ishlay boshlagan davr ichida mazkur qonun va dasturni amaliyotga joriy etish uchun nimalar qilindi? Respublika ta'limida nimalar o'zgardi? Shu masalalarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Avvalo, ta'lim taraqqiyotining barcha jabhalarida ko'zlagan bosh maqsad respublikada o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini milliy istiqlool g'oyalari talablari asosida tashkil etish, jamiyatimiz qadam qo'yayotgan yangi asr ta'limining taraqqiyot, ma'naviy-madaniy qarashlar ruhida bo'lishini, eng muhimi, jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlashdir[2].

Demokratik jamiyatda har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyanadi. Agar bola erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamon o'quv muassasalarining vazifasi yosh avlodga mustaqil fikrlashni o'rgatishdir, bu esa oila, bog'cha, maktab, litsey va kasb-hunar maktablaridagi ta'lim-tarbiya beruvchi shaxslarning zimmasiga katta mehnatni yuklaydi. Shu sababdan har bir pedagog o'z ustida tinmay izlanishi va mahoratini ishga solishi kerak.

Shuni aytish kerakki, yosh avlodga zamonaviy bilim berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o'stirish uchun zarur qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi turadi. Har qanday jamiyatda dars jamiyat tomonidan ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Darsning vazifalari ta'lim jarayonining qonuniyatlari va muayyan jamiyatning komil shaxs borasidagi tushunchalari bilan qat'iylashadi.

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berdi. Mustaqillik sharoiti O'zbekistonda faning rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalo, fanimiz strukturasi keskin o'zgardi: ma'naviy fanlar hisoblanuvchi tasavvuf ilmi tiklandi, hadis bilimlariga yo'l ochildi, binobarin, ziyolilarimiz, talabalarning ruhiy dunyosi ancha boyidi, yangi oliy o'quv yurtlari, tashkil qilindi; ilm ahli chet eldagi olimlar bilan mustahkam ilmiy aloqalar o'rnatdi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlarimiz ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshladi. Olimlarimiz ilm-fanning dolzarb sohalarida tadqiqotlar olib borishga kirishdilar. Yangi davr deb ataluvchi zamonda fanning

ijtimoiy roli yanada oshdi. U madaniyatning muhim tarmog'i va texnikaning nazariy asosiga aylana boshladi. O'zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa, ziyolilarning ma'naviy salohiyati, o'zgarishlarni to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun o'quv maskanlarida sifatli kadrlarni yetkazib berish masalasi hozirda dolzarb hisoblanadi. Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatli insonlar hal etadi. Kelajak taqdirimizga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil fan-texnika, madaniyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ilm-fan, madaniyat va ma'rifat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi. Ilm- ma'rifat e'zozlangan, ta'lim-tarbiyaga birinchi darajali ahamiyat berilgan mamlakatda nizolar, urush to'g'risida o'ylash hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Chunki ilm-ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. Ta'lim-tarbiyaga birinchi darajada ahamiyat berish, bu haqida qayg'urish mamlakat va xalq istiqbolini o'ylash demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Baxt-saodatga erishuv haqida". Abu Nasr Forobiy. Risolalar
2. Umumiy pedagogika. Qism 1: darslik / O.Musurmonova Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2020.-376 b
3. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/ Z.T.Nishonova. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 418 bet.
4. Психология агрессивного поведения, Ильин Е., Питер, 2014. 35 с.
5. Захаров Л.И. Психотерапия неврозов у детей и подростков. Москва 2012239 с.